

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM
VAZIRLIGI**

**TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO‘JALIGINI
MEXANIZATSIYALASH MUHANDISLARI INSTITUTI**

**«GIDROMELIORATIV ISHLARNI MEXANIZATSIYALASH»
kafedrası**

«Mutaxassislikka kirish»

**FANIDAN «TALABA MUSTAQIL ISHINI TASHKIL ETISH VA
BAJARISH»**

BO‘YICHA

U S L U B I Y K O ‘ R S A T M A



TOSHKENT 2022

Ushbu uslubiy ko‘rsatma institut Ilmiy uslubiy kengashining “29” oktyabr 2021 yil bo‘lib o‘tgan _8_- sonli majlisida ko‘rib chiqildi va chop etishga tavsiya etildi.

Uslubiy ko‘rsatma «Mutaxassislikka kirish» fanidan «Mustaqil ishini tashkil etish va bajarish» bo‘yicha o‘qituvchining rahbarligi va nazorati ostida talabada o‘quv ishlarini mustaqil bajarish uchun zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarni shakllashtirish va rivojlantirishga mo‘ljallangan.

Tuzuvchilar:

N.K.Usmanov., dotsent
T.U.Usmonov., katta o‘qituvchi
M.S.Karimov., katta o‘qituvchi
M.O.Xolbo‘tayev., assistent
I.M.Turdibekov., assistent
F.F. Yusupov., assistent

Taqrizchilar:

A.Do‘skulov: - TIQXMMI “Qishloq xo‘jaligi mashinalari” kafedrası dotsent, t.f.n.

Sh.Rovutov: - TDTU, “Yer usti transport vositalari” kafedrası dotsenti,t.f.n.

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida” gi qonunni muvaffaqiyatli amalga oshirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarining o‘rni beqiyosdir. Jumladan, fanlarni o‘zlashtirishda va kelajak mutaxassisni zamon talabida tayyorlashda mustaqil ishlarni bajarish sifati juda ham muhim.

Mazkur metodik qo‘llanma O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2001 yil 16 avgustdagi Oliy ta’limning davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash tug‘risidagi 343-son qaroriga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2005 yil 21-fevraldagi «Talaba mustaqil ishini tashkil etish to‘g‘risidagi» 43-son buyrug‘i hamda Toshkent irrigatsiya va melioratsiya iistitutining buyrug‘iga muvofiq tuzilgan.

Mazkur metodik qo‘llanmada talabalarni «Melioratsiya mashinalari» fanini o‘zlashtirishda mustaqil ishlarni tashkillashtirish, ularning tarkibi va mazmuni, bajarish va yakunlanishi tartibi to‘g‘risida ma’lumotlar berilgan.

Bu metodik qo‘llanmada kelajak bakalavrlar irrigatsiya va melioratsiya tarmoqlarini qurish, ta’mirlesh ishlarini tashkil etish va texnologiyalarni qo‘llash va rivojlantirish yo‘llarini mustaqil ravishda o‘zlashtirish usullari tavsiya etilgan.

Mustaqil ishning maqsadi va vazifalari

Talaba mustaqil ishining maqsadi - o‘qituvchining bevosita rahbarligi va nazorati ostida talabada o‘quv ishlarini mustaqil bajarish uchun zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishdir.

Talaba mustaqil ishining vazifalari:

- ma’ruza darslaridan olgan bilimlarini mustaqil va puxta o‘zlashtirish;
- elektron o‘quv adabiyotlar bilan ishlashni o‘rganish;
- axborot manbalardan foydalana olish;
- ilmiy adabiyotlardan va meyoriy xujjatlar bilan ishlash;
- internet tarmog‘idan maqsadli foydalana olish;
- ishlarni bajarishda ijodiy yondoshish;
- o‘z ishini mutaxassislar jamoasida himoya qilish.

Mustaqil ishni shakli va tashkil etishning mezonlari.

Talaba muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda referat, prezentatsiya, ma’ruza, maqola va boshqa shaklga ega bo‘lgan mustaqil ishni tayyorlash davrida quyidagi manbalardan foydalanishi tavsiya etiladi: darslik va o‘quv qo‘llanmalar bo‘yicha fan boblari va mavzularini o‘rganish;

tarqatma materiallar bo‘yicha ma’ruzalar qismini o‘zlashtirish;

- avtomatlashtirilgan o‘rgatuvchi va nazorat qiluvchi tizimlar bilan ishlash;
- maxsus adabiyotlar bo‘yicha fanlar bo‘limlari yoki mavzulari ustida ishlash;
- yangi texnika va texnologiyalarni o‘rganish;
- talabaning o‘quv-ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog‘liq bo‘lgan fanlar bo‘limlari va mavzularni chuqur o‘rganish;
- faol va muammoli o‘qitish uslubidan foydalanish;

- masofaviy (distansion) ta'lim.

Mustaqil ishlarini baqolash mezonlari:

Mustaqil ishlarini o'zlashtirish sifati fanga ajratilgan jami 100 ball tarkibiga kiradi. Har bir nazoratlar bo'yicha rektorning 199 a/f buyruqi asosida mustaqil ish uchun ballar ajratiladi.

Ballar to'plash mezonlari:

Fan bo'yicha talabani bilimi:

Nazoratlarni o'tkazishda talabalar bilimi referat bajarish uchun maksimal 5 ball bilan belgilanadi.

Talabani mustaqil ishiga rahbarlik va nazorat qilish yuklamasi ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarni olib boradigan kafedra professor-o'qituvchilariga yuklatiladi.

Mustaqil ishga rahbarlik qilish kafedrada tuzilgan va fakultet dekani tomonidan tasdiqlangan konsultatsiya jadvallari asosida olib boriladi.

Talaba mustaqil ishini nazorat qilish va baholash mezonlari kafedra tomonidan belgilanadi va fakultet Ilmiy kengashida tasdiqlanadi. Talabani mustaqil ishi kafedrada olib boriladigan maxsus jurnalda belgilanadi va o'quv yili davomida saqlanadi.

Talabalarning mustaqil ishlarining himoyasi kafedrada tuzilgan komissiya tomonidan baholanadi.

1. Nazoratlarni ni o'tkazish uchun mustakil ishlarining o'zlashtirilgan qismi bo'yicha tegishli baholar ko'yiladi.

2. Mustaqil ishlarini olib borish sifatini nazorat turlari kafedraning maxsus jurnalida o'z vaqtida qayd qilinib, borilishi har bir o'qituvchi zimmasiga yuklatiladi.

3. Nazorat turlarining natijalari dekanatlarga berilishi uchun maxsus qaydnomalarda rasmiylashtiriladi.

4. Olingan baholar natijalari talabalarga 2 kun ichida e'lon qilinadi.

5. Qoniqarsiz baholangan talabalarni 1 hafta ichida qayta topshirishni tashkil etish ma'ruzachilar va amaliy (tajriba) mashg'ulotlarni o'tgan o'qituvchilar zimmasiga yuklatiladi.

6. Nazoratlarni o'tkazilishi to'g'risida talabalar 1 hafta oldin ogohlantiriladi.

Mustaqil ishlarini axborot ta'minoti

«Mutaxassislikka kirish» fani bo'yicha mustaqil ishlarining shakli o'quv mashg'ulotlarni olib boradigan kafedra professor-o'qituvchilari tomonidan tuziladi va kafedra mudiri tomonidan tasdiqlanadi. Talabaga berilgan mustaqil ishni bajarilishi buyicha ko'rsatmalar va tavsiyalar qayd etiladi.

Mustaqil ishni bajarish uchun institut xududidagi axborot manbai sifatida darsliklar, o'quv qo'llanmalar, ularning elektron to'plamlari, ilmiy va ommaviy nashrlar, Internet ma'lumotlar va boshqa axborot xizmatlaridan foydalanishligi mumkin bo'ladi.

Institut raxbariyati tomonidan talabalarga mustaqil ishlarni o'z vaqtida bajarish uchun kompyuter xonalari va Internet tarmog'idan foydalanish uchun ruxsat beriladi.

«Mutaxassislikka kirish» fani buyicha mustaqil ishlarni bajarish uchun tavsiyalar:

1. Xodimlarni gidromeliorativ tizimlarini qurish sohasidagi xorijiy davlatlar tajribalari.

2. Irrigatsiya tizimlari, Havza boshqarmalari va suvdan foydalanish uyushmalarida mavjud muammolari.

3. Ma'ruza darslarida beriladigan tavsiyalar asosida maxsus jurnallar va gazetalarda chop qilinadigan gazetalar hamda boshqa materiallarni mustaqil ravishda o'zlashtirish va zarur yangi ma'lumotlarni konspekt matniga yozib olish.

4. O'zdavsuvloyixa, O'zmaxsussuvqurilish, Amkodor Tashkent, Agrotexmash MCHJ, SANIIRI, O'z.R.FA va O'z.PITI, ilmiy va loyixa institutlariga doimo qatnashish, ularda qo'llaniladigan zamonaviy injener hisoblarini hamda ilmiy yutuklarini o'rganish va o'zlashtirib, o'z kurs va bitiruv malakaviy ishlarida qo'llash uchun sharoit yaratish.

5. Institut O'quv-ilmiy markazi, suv omborlari, sug'orish va zovur tarmoqlaridan qurish sohasida olib borilayotgan ishlari bilan tanishish.

6. O'zbekiston Respublikasi Fan va texnik yutuqlari saroyiga borish va sug'orma dehqonchiligi, irrigatsiya va melioratsiya qurish sohasidagi yangi ma'lumotlarni yig'ish va o'zlashtirish.

7. Institut talabalar ilmiy jamiyatida va guruhlarida ushbu zamonaviy va dolzarb yangiliklarni jamoaga batafsil ma'ruza qilib yetkazish.

Talabalar mustaqil ishlarining mavzusi va hajmi

1 jadval

Ishchi o'quv dasturining mustaqil ishga oid bo'lim va mavzulari	Mustaqil ishga oid topshiriq va tavsiyalar	Bajari-lish muddat-lari	Hajmi (soatda)
1. «Mutaxassislikka kirish» fanining mohiyati, maqsadi, vazifalari.	Referat, ma'ruza, prezentatsiya yoki boshqa shaklda qilinishi mumkin	O'quv reja bo'yicha	2
2. TIQXMII ning qisqacha tarixi	Referat, ma'ruza, prezentatsiya yoki boshqa shaklda qilinishi mumkin.	O'quv reja bo'yicha	2
3. O'zbekistonda irrigatsiya va melioratsiyaning rivojlanishi	Referat, ma'ruza, prezentatsiya yoki boshqa shaklda qilinishi mumkin.	O'quv reja bo'yicha	2
4. O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi «Ta'lim to'g'risida» gi qonuni	Referat, ma'ruza, prezentatsiya yoki boshqa shaklda qilinishi mumkin.	Уқув режа бўйича	2
5. O'quv jarayonining asosiy shakllari va talabalik yoshda (yoshida) gi psixologik (ruxiy) xususiyatlar	Referat, ma'ruza, prezentatsiya yoki boshqa shaklda qilinishi mumkin.	O'quv reja bo'yicha	2
6. Talabalarning huquq va	Referat, ma'ruza,	O'quv	2

majburiyatlari	prezentatsiya yoki boshqa shaklda qilinishi mumkin	reja bo'yicha	
7. «Suv xujaligi va melioratsiya ishlarini mexanizatsiyalash» («SXMIM») bakalavriat yunalishi buyicha mutaxassislar tayyorlashning o'ziga xos xususiyatlari	Referat, ma'ruza, prezentatsiya yoki boshqa shaklda qilinishi mumkin	O'quv reja bo'yicha	2
8.Malumotnoma asoslari va kutubxonashunoslik	Referat, ma'ruza, prezentatsiya yoki boshqa shaklda qilinishi mumkin	O'quv reja bo'yicha	2
9.O'zbekiston sharoitida mashinalardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari Yerlarni meliorativ xolatini yaxshilash	Referat, ma'ruza, prezentatsiya yoki boshqa shaklda qilinishi mumkin	O'quv reja bo'yicha	2

Mustaqil ish yakunlarini baholash bo'yicha savollar to'plami.

- 1.«Mutaxassislikka kirish» fanining mohiyati (fanning maqsad va vazifalari, o'qitish jarayoni masalalari).
- 2.Zamonaviy texnika va texnologiyalarni mutaxassislar tayyorlashdagi o'rni (yangi meliorativ va qurilish mashina mexanizmlarni ishlatishda yuqori malakali, raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlash zaruriyati).
- 3.Melioratsiya ishlarining rivojlanish tarixi.
- 4.Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti(TIQXMMI) ning tashkil topishi qisqacha tarixi va hozirgi tarkibi (qaysi yilda tashkil topgan, qachon qayta nomlagan, asosiy tarkibiy qismi).
- 5.Talaba yoshlarimizning axloqi va odobi (vatanparvarligi, Vatanga sadoqatliligi, ilmga chanqoqligi, milliy o'zlikni anglash, ma'naviy va ma'rifiy yetukliklari va boshqalar).
6. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash injenerlari instituti - O'zbekistondagi yirik qishloq va suv xo'jaligi uchun mutaxassislar tayyorlash maskani, (mutaxassisliklar yo'nalishlari, mutaxassislar ishlashi mumkin bo'lgan obyektlar).
- 7.Kutubxonada ishlash va uning bosqichlari (adabiyot tanlash, talayaboma berish, foydalanish va boshqalar).
- 8.Kitob ustida ishlash va uning asosiy bosqichlari (kitoblar bilan tanishish, tanlash va ulardan foydalanish).
- 9.Melioratsiya mashinalari tizimi tushunchasini aytib bering.
- 10.O'zbekiston Respublikasi Oliy va Davlat ta'limi standarti (Ta'lim bosqichlari, oliy ta'lim, bakalavriat, magistratura va boshqalar).
- 11.Materiallarni o'zlashtirish va hisobga olish (imtihon va sinovlar-oraliq, joriy baholashlar va boshqalar).

12. O'quv va ishlab chiqarish amaliyotlarining farqi.
13. Ixtisoslik fanlarining rivojlanish qisqacha tarixi
14. Oliy ta'limning ahamiyati va o'ziga xos xususiyatlari (oliy ta'limning fan va texnika bilan o'zaro aloqalari).
15. Aqliy mehnat gigiyenasi va madaniyati (ish joyini to'g'ri tashkil qilish, yoritilish meyorligini ta'minlash, fanlarni almashtirib o'qish).
16. Melioratsiya va qurilish mashinalariga qo'yiladigan asosiy talablar.
17. O'quv jarayonining asosiy shakllari (ma'ruza, amaliy mashg'ulotlar va laboratoriya ishlari va boshqalar).
18. Talabalik yoshdagi psixologik xususiyatlar (talaba tushunchasi, uning asosiy hayotiy yo'nalishi).
19. Issiq iqlim sharoitida mashinalardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari (foydalanish shartlari, mashinalarni ishlatishda qo'llaniladigan yonilg'i-moylash materiallari).
20. «SXMIM» bakalavriat yo'nalishlari bo'yicha mutaxassislar tayyorlashning o'ziga xos xususiyatlari (mutaxassislarning vazifalari, ishlashi mumkin bo'lgan obyektlar).
21. Ma'lumotnoma asoslari va kutubxonashunoslik (mutaxassislik bo'yicha adabiyotga talayaboma berish va uning asosiy bosqichlari, alfavitli va tizimiy (sistematik) kataloglar).
22. Irrigatsiya va melioratsiya ishlarini mexanizatsiyalashtirish (qurilish, melioratsiya, sug'orish va boshqa mashinalarning irrigatsiya va melioratsiya ishlaridagi o'rni).
23. Oliy o'quv yurtida o'quv jarayonini ilmiy asosda tashkil etish (fan va texnika yangiliklar, psixologik va fiziologik yondashuv ahamiyatlari, refleks va signallar).
24. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni qachon qabul qilingan? (umumiy qoidalar, qonun hujjatlari).
25. O'quv rejalari va dasturlari (o'quv ishlari tartibi, mazmuni, shakli, baholash va boshqalar).
26. Oliy ta'lim bosqichlari (bosqichlar, bakalavr, magistr, aspirantura).
27. «Mutaxassislikka kirish» fanining boshqa fanlar bilan uzviyligi.
28. Talabalarning ilmiy tadqiqot ishlari (ilmiy to'garaklar, ilmiy anjumanlar, olimpiadalar va boshqalarda ishtiroklari).
29. Mutaxassislik tayyorlashda umumkasbiy fanlar o'rni.
30. Talabalarni mustaqil ishlashini tashkil etish (adabiyotlar, fan va texnika yangiliklari, texnika va texnologiyalar bilan tanishib borish).
31. Kutubxonadan foydalanish tartibi qanday?
32. O'zbekiston mahalliy sharoitida mashinalardan foydalanishning hususiyatlari.
33. Talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etish.
34. Talabalar huquq va majburiyatlari.
35. Melioratsiya va qurilish mashinalarining suv xo'jaligi majmuasidagi o'rni

Mustqil ish yakunlarini baxolash buyicha tuzilgan savollarga variantlar:

Variant nomerlari	Savollar raqami		
1	9, 25	18, 50	1,41
2	13, 26	19, 51	2,42
3	14, 27	20, 52	3,43
4	15, 28	21, 53	4,44
5	16, 29	22, 54	5,45
6	17, 30	23, 55	6,46
7	12, 31	24, 56	7,47
8	13, 32	25, 57	8,48
9	14, 33	18,58	9,49
10	15, 34	19,59	10,50
11	16, 35	20, 60	11,35
12	17, 36	21, 33	12,36
13	16, 37	22, 32	13,37
14	15, 38	23, 34	14,38
15	11, 39	24, 38	15,39
16	17, 40	25, 65	9,26
17	12, 41	19, 66	7,42
18	5, 42	20, 67	11,6
19	16, 43	21, 68	25,10
20	17, 44	22, 69	12,34
21	87, 45	23, 7	23, 23
22	15, 46	24, 17	24, 14
23	13, 47	25, 12	25, 35
24	8, 48	19, 13	19, 22
25	12, 49	24, 14	20, 47

Tavsiya etiladigan asosiy adabiyotlar.

1. T.U.Usmonov, B.S.Mirzayev, I.S.Xasanov. Mutaxassislikka kirish. Toshkent, Voris nashriyot, T., 2014y. 336 b.
2. A.Akbarov. Qurilish mashinalari. Toshkent – O‘qituvchi 1992y., 274 b.
3. T.I.Askarxodjayev, R.X.Valiyev, M.A.Mirsadikov. «Дипломное проектирование землеройных машин» Т., O‘qituvchi, 1988, 184b.
4. В.В.Суриков, Б.А.Василаев, В.Б.Гантман ва бошқ.; «Строительные машины для механизации мелиоративных работ». М., 1991y. 463 b.
5. Смирнов А.А., Додонов В.А. “Ручные машины для строительных работ” М., Стройиздат, 1988, 320b

Qo‘shimcha adabiyotlar

1. Мелиоративные и строительные машины. Васильев Б.А., Мер И.И., Прудников Г.Т., Рябев Г.А., М., Агропромиздат, 1986., 431б.
2. Строительные машины. редак. Проф. Д.П. Волкова, М., Высшая школа, 1988., 319б.
3. Бауман В.А., Клушанцев Б.В., Мартинов В.Д. – Механическое оборудование предприятий стремительных материалов, изделий и конструкций. М., «Машиностроение», 1981., 324б.
4. Ivanov V.A. va boshkalar. Qurilish mashinalari va asbob – uskunalari (Ruscha nashridan tarjima) Т., « o‘qituvchi», 1978y., 220b.
5. В.В.Колесниченко. Бульдозер, скрепер ва грейдер хайдовчилари учун справочник (русча нашрдан таржима). Т., Уқитувчи, 1993й., 240 б.
6. Баловнев В.И. Дорожно – Стремительные машины с рабочими органами интенсифицирующего действия М., «Машиностроение». 1981y., 223б.

MUNDARIJA

1. Kirish	3
2. Mustaqil ishining maqsad va vazifalari	4
3. Mustaqil ishni shakli va tashkil etishning mezonlari.....	4
4. Mustaqil ishlarini baholash mezonlari	4
5. Mustaqil ishlarini axborot ta'minoti	5
5. Mustaqil ishlarni bajarish uchun tavsiyalar	5
7. Mustaqil ishlarning mavzusi va hajmi	6
8. Mustaqil ish yakunlarini baholash bo'yicha savollar to'plami	9
9. Mustkil ish yakunlarini baxolash uchun savollar variantlari	11
10. Tavsiya etiladigan manbalar	12

**Usmanov Nail Kayumovich,
Usmonov Tohir Usmonovich,
Karimov Maqsud Samadovich,
Xolbo‘tayev Muzaffar Odilovich,
Turdibekov Ilhomjon Mahmudovich,
Yusupov Furqat Farxod o‘g‘li**

«Mutaxassislikka kirish»

**FANIDAN «TALABA MUSTAQIL ISHINI TASHKIL ETISH VA
BAJARISH»**

BO‘YICHA

U S L U B I Y K O ‘ R S A T M A

Muharrir:

M.Mustafayeva

Bosishga ruxsat etildi _____2021 y.
qog‘oz o‘lchami 60x84 hajmi 0.7 b.t. 10 nusxa.
Buyurtma № _____

TIMI bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent, 100000, Qori Niyoziy ko‘chasi, 39 uy.